

**BOJXONA REJIMLARI BILAN BOG'LIQ MA'MURIY  
HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Qarshibaev Fayzulla Umrzakovich**

*Bojxona Qo'mitasining Bojxona instituti  
Umumhuquqiy fanlar kafedrası boshlig'i,  
bojxona xizmati podpolkovniki*

**Idiyev Otabek Ulug'bek o'g'li**

*Bojxona Qo'mitasining Bojxona instituti  
4-kurs 121-guruh kursanti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bojxona rejimlari bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklarni tartibga solish va ish yuritish jarayonlari batafsil tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar va Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) me'yorlariga tayangan holda ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish jarayonining o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Xalqaro tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston bojxona tizimida ularni joriy etish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

**Annotation.** This article provides a detailed analysis of the processes of regulation and prosecution of administrative offenses related to customs regimes. Based on the customs legislation of the Republic of Uzbekistan, international legal instruments and the standards of the World Customs Organization (WCO), the specific aspects of the process of prosecution of administrative offenses are highlighted. International experiences are analyzed and the prospects for their implementation in the customs system of Uzbekistan are considered.

**Kalit so'zlar:** bojxona rejimlari, ma'muriy huquqbuzarliklar, ish yuritish, O'zbekiston qonunchiligi, Jahon Bojxona Tashkiloti, xalqaro tajriba, huquqiy asoslar.

**Keywords:** customs regimes, administrative offenses, proceedings, legislation of Uzbekistan, World Customs Organization, international experience, legal framework.

Bojxona tizimi har qanday davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bojxona rejimlariga rioya etilmasligi ma'muriy huquqbuzarliklarni keltirib chiqarib, davlat budjeti tushumlarini kamaytirishi va noqonuniy tovar ayirboshlashga yo'l ochishi mumkin. Shu sababli, bojxona huquqbuzarliklari bo'yicha ish yuritish tartibining aniq va samarali bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ushbu huquqbuzarliklarni tartibga solish mexanizmlari tahlil qilinadi hamda rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari haqida ma'lumotlar beriladi.

Bojxona qonunchiligi buzilishi bu - O'zbekiston Respublikasining bojxona ishini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi tasdiqlagan xalqaro shartnomalar bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lashga, boj imtiyozlarini berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqga zid xatti-harakati yoxud harakatsizligidir.

Bojxona huquqbuzarliklari bilan bog'liq huquqiy masalalar O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, shu jumladan boshqa tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi.

Bojxona huquqbuzarliklari turli darajadagi jarima, musodara va boshqa ma'muriy choralarga olib kelishi mumkin. Ushbu huquqbuzarliklar nafaqat fuqarolar, balki mansabdor shaxslar uchun ham javobgarlikni belgilaydi. Har bir huquqbuzarlik turi uchun alohida jarima miqdorlari belgilangan bo'lib, bu miqdorlar, asosan, huquqbuzarlikning og'irligi, o'ziga xosligi va sodir etilishining takrorlanishiga qarab farqlanadi.

Bojxona ma'muriy huquqbuzarliklari quyidagi asosiy sohalarda namoyon bo'ladi:

1. Bojxona to'lovlarini kamaytirib yoki ko'paytirib ko'rsatish.
2. Bojxona hujjatlarida noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar kiritish.
3. Bojxona nozaratidan yashirib yoki aldov yo'li bilan o'tkazish.
4. Taqiqlangan tovarlar va vositalarning noqonuniy olib kirilishi yoki chiqarilishi.
5. Deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tishga harakat qilish kabi holatlar.

Bojxona qonunchiligi tizimi shuningdek, xalqaro savdo, tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona protseduralariga oid me'yorlarni o'rnatgan holda, davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu tizimning muhim qismi bo'lgan Bojxona kodeksi barcha tijorat operatsiyalarini tartibga solish va ularni qonuniy ravishda amalga oshirishga yordam beradi.

Bojxona ma'muriy huquqbuzarliklari va ularning huquqiy asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, bojxona to'lovlarining to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, noqonuniy iqtisodiy faoliyatlarga qarshi kurashish va davlat xavfsizligini saqlashga xizmat qiladi.

Albatta huquqbuzarlikka qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida bojxona qoidabuzarliklariga doir ma'muriy huquqbuzarliklari bo'yicha ish yuritish

tartibi belgilangan bo'lib, davlatning bojxona organlari tomonidan nazorat qilinadigan va qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan jarayonlarning muhim qismini tashkil etadi. Ushbu jarayon, bojxona huquqbuzarliklarini aniqlash, huquqbuzarliklarni tergov qilish, va ularga tegishli jazo choralari qo'llanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy asoslarni belgilaydi.

Bojxona huquqbuzarliklari — bu O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi, bojxona xavfsizligi va tovarlarni tashish, bojxona to'lovlari va yig'imlarini to'lashni tartibga soladigan boshqa qonunlarga zid ravishda amalga oshirilgan xatti-harakatlardir. Ushbu huquqbuzarliklar, qonuniy va tartibga solingan tashqi savdo faoliyatini buzishi, davlatga zarar yetkazishi yoki bojxona hududiga noqonuniy tovarlarni kiritish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima va musodara qilish jazo choralari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 262-moddasiga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 227, 227<sup>1</sup>, 227<sup>2</sup>, 227<sup>3</sup>, 227<sup>5</sup>, 227<sup>6</sup>, 227<sup>7</sup>, 227<sup>10</sup>, 227<sup>11</sup>, 227<sup>13</sup>-moddasining uchinchi qismida, 227<sup>16</sup>-moddasining birinchi qismida, 227<sup>22</sup>-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bojxona organlariga taalluqlidir.

Bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari bojxona organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishga hamda jarima tariqasidagi ma'muriy jazo choralarni qo'llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari) haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 245-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeksning 227<sup>4</sup>, 227<sup>8</sup>, 227<sup>9</sup>-moddalarida, 227<sup>13</sup>-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 227<sup>14</sup>, 227<sup>15</sup>-moddalarida, 227<sup>16</sup>-moddasining ikkinchi-beshinchi qismlarida, 227<sup>17</sup>, 227<sup>18</sup>, 227<sup>19</sup>, 227<sup>20</sup>, 227<sup>21</sup>-moddalarida, 227<sup>22</sup>-moddasining

birinchi qismida, 227<sup>23</sup>, 227<sup>24</sup>, 227<sup>25</sup>, 227<sup>26</sup>-moddalarida nazarda tutilgan,

shuningdek 90<sup>1</sup>, 171<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 185<sup>1</sup>, 189, 189<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ko'rib chiqadi va belgilangan sanksiya doirasida jarima va musodara tariqasidagi ma'muriy jazo choralarni qo'llaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish jazosi esa ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilishning imkoni bo'lmagan taqdirda, ularning qiymati qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan undirib olinadi.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida, agar MJtKning 36-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish jazo chorasi bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilgan yoki buzilganligi aniqlangan vaqtdan, shuningdek u asosiy yoki qo'shimcha jazo bo'lishidan qat'iy nazar berilaveradi.

Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

Bugungi kunda sohani rivojlantirish va yanada takomillashtirishning eng qulay va samarali usullardan biri bu xalqaro tajribalardan foydalanishdir. Chunki xalqora tajribalarda amalga oshirilgan islohotlar, harakatlar, protseduralar vaqt sinovidan o'tgan bo'ladi, ular o'z natijasini ko'rsatgan bo'ladi, xato va kamchiliklari aniqlanib ularga kerakli tuzatishlar kiritilgan bo'ladi va eng asosiysi ulardan foydalangan holda muvaffaqiyat va natijaga tez va samarali erishsa bo'ladi. Misol uchun bir nechta davlatlar tajribalarini keltirib o'tish mumkin:

AQSh: 2002-yildagi C-TPAT dasturi orqali bojxona xavfsizligi oshirildi. Natijada, noqonuniy import 30% ga kamaydi.

Yevropa Ittifoqi: 2016-yilda Union Customs Code (UCC) kuchga kirib, elektron deklaratsiya tizimi joriy etildi, natijada bojxona qonunbuzarliklari 20% ga kamaydi.

MDH: 2019-yilda Yagona Bojxona Ittifoqi avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy qilib, noqonuniy mahsulotlarni aniqlash darajasi 30% ga oshdi.

Xitoy: 2018-yilda Smart Customs Initiative dasturi ishga tushirilib, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida deklaratsiya va bojxona nazorati jarayoni soddalashtirildi. Natijada, Xitoyda bojxona huquqbuzarliklari 40% ga kamaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bojxona ma'muriy huquqbuzarliklari davlat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bojxona tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda va profilaktika choralari natijasida noqonuniy savdo hajmi sezilarli darajada kamayadi va davlat byudjetiga tushumlar ortadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi,
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks,
3. Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) – Revised Kyoto Convention, 1999.
4. Jahon Bojxona Tashkiloti – SAFE Framework of Standards, 2013.
5. European Commission – Union Customs Code (UCC), 2016.
6. U.S. Customs and Border Protection – C-TPAT Program, 2002.
7. Eurasian Economic Commission – Customs Code of the Eurasian Economic Union, 2019.
8. General Administration of Customs of China – Smart Customs Initiative, 2018.